

SHARTNOMA № 07

(Tovar-moddiy boyliklar, xom-ashyo va materiallar sotib olish, xizmat ko'rsatish haqida)

2022 yil "08" yanvar

Farg'ona shahar

Farg'ona shahar maktabgacha ta'lim bo'limi nomidan Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari **N.Irgasheva** bir tarafdin (keyingi o'rinlarda "**Buyurtmachi**") deb yuritiladi), nizom asosida harakat qiluvchi «PROFARMA MEDICAL» MChJ nomidan Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari **S.Tuychiev** ikkinchi tomondan (keyingi o'rinlarda "**Yetkazib beruvchi**") deb yuritiladi) quyidagi shartnomani ushbu shartlar asosida tuzdilar:

I. Shartnoma predmeti

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq "**Yetkazib beruvchi**" "**Buyurtmachi**"ga o'zida mavjud bo'lgan quyidagi mahsulotlarni yetkazib berishni, "**Buyurtmachi**" bu mahsulotlarni qabul qilib olish va mahsulot yoki tovar (ko'rsatilgan xizmat) uchun to'lovlarni belgilangan tartibda amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar:

II. Shartnoma narxi

| № | Mahsulot nomi | O'lchov birligi | Miqdori | Narxi QQS siz | Yetkazib berish qiymati QQS siz | QQS stavkasi % | QQS summasi | Jami summasi QQS bilan |
|---|--|-----------------|---------|---------------|---------------------------------|----------------|-------------|------------------------|
| 1 | ABK- Xloraktiv plyus 1,0 kg Barcha turdagi dezinfesiyalovchi vositalar | dona | 345 | 66040 | 22783800 | 15 | 3417570,00 | 26201370 |
| X | Жами: | x | x | x | 22783800 | x | x | 26201370 |

Tovarlarning shartnomaviy umumiy bahosi Yigirma olti million ikki yuz bir ming uc yuz yetmish so'm

III. Hisob-kitob qilish tartibi

3.1. "**Buyurtmachi**" tovar uchun oldindan, yetkazib berilayotgan tovar, mahsulot (ko'rsatilgan xizmat) ning 30 foizi miqdorida pul mablag'ini o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. "**Buyurtmachi**" tomonidan qolgan 70 foiz to'lov "**Yetkazib beruvchi**" tomonidan tovarlar yetkazib berilib, hisob fakturalar taqdim qilingandan so'ng to'lab beriladi

IV. Tovar yetkazib berish muddati

4.1. "**Yetkazib beruvchi**" mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirgandan so'ng tovarni 30 kun ichida "**Buyurtmachi**"ga yetkazib berishi shart. (tovar yetkazib berish muddati)

V. Tovar sifati

5.1. Yetkazib berilayotgan tovar yoki mahsulotlarning sifati belgilangan standartlarga (muvofiklik sertifikat), ishlab chiqarish me'yoriy hujjatlari va "**Buyurtmachi**"ning talablariga mos kelishi shart.

VI. Tomonlarning majburiyatlari

6.1. "**Yetkazib beruvchi**" majburiyatlari:

- Shartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan holda o'z vaqtida "**Buyurtmachi**"ga tovarni yetkazib berish;
- Shartnomaning shartlari "**Buyurtmachi**" tomonidan buzilganda berilgan mahsulotni qaytarib olib qo'yish huquqiga ega;
- Tegishli darajada sifatli mahsulot yuborilmaganligi to'grisida bildirishnoma olgandan so'ng, sifatli bo'lmagan mol-mulkni 3 kun ichida almashtirib berish yoki ushbu shartnomaning 2-bandiga asosan sifatli bo'lmagan mol-mulk bahosini qaytarib berish;

- **"Yetkazib beruvchi"** yetkazib bergan mahsulotlarini hisob-varaqlarda to'liq va aniq nomini, mahsulot navini, kategoriyasini va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi shart. Shuningdek, hisob fakturalarni belgilangan tartibda raqamlab, to'liq rekvizitlarni rasmiylashtirishi lozim.

6.2. **"Buyurtmachi"**ning majburiyatlari:

- **"Buyurtmachi"** shartnomada belgilangan talablarga rioya qilgan holda to'lovlarni amalga oshirish, tovarni dalolatnoma tuzib ushbu shartnomada va qonun hujjatlarida belgilangan butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab o'z vaqtida mahsulotni qabul qilib olishi lozim. Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulk kelib tushganligi aniqlangandan so'ng, ushbu to'g'risida tegishli dalolatnoma tuzilib bu haqida 3 kun ichida **"Yetkazib beruvchi"**ni ogohlantirish.

- To'liq rasmiylashtirilmagan hamda mahsulotning sifati, navi va kategoriyalari ko'rsatilmagan hisob fakturalar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

VII. Tomonlarning javobgarligi

7.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni ijro etilmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida shuningdek ushbu shartnomada nazarda tutilgan talablar asosida javobgardirlar.

7.2. **"Yetkazib beruvchi"** tomonidan **"Buyurtmachi"**ga tovar va mahsulotlarni belgilangan muddatlarda yetkazib bermaganligi uchun kechiktirilgan har bir kun uchun yetkazib berilmagan mahsulot qiymatining 0,5 % miqdorida **"Buyurtmachi"**ga penya to'laydi, lekin penya miqdori kechiktirilgan mahsulot qiymatining 50 % dan oshmasligi kerak.

7.3. Shartnoma talablarida ko'rsatilgan belgilangan sifatlardagi hamda butlashdagi mol-mulk yetkazib berilmagan taqdirda, aybdor taraf ushbu mahsulot qiymatining 20 % miqdorida jarima to'lashiga sabab bo'ladi.

7.4. **"Buyurtmachi"** tomonidan olingan tovar yoki mahsulot uchun to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan summaning 0,4 % miqdorida **"Etkazib beruvchi"**ga penya to'laydi, bunda penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan summaning 50 % dan ortiq bo'lmasligi lozim.

7.5. Nazorat organlari tomonidan yetkazib berilgan tovar yoki mahsulotlar narxi yuqori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq yetkazib beruvchi tomonidan qoplanadi.

VIII. Fors-major holatlari

8.1. Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Fors-major holatlariga: suv toshqini, yong'in, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek harbiy harakatlar, davlat organlarining aktlari yoki harakatlari va taraflar nazorat qila olmaydigan boshqa har qanday holatlar tegishlidir.

8.2. Taraflar ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to'g'risida albatta ikkinchi tarafni yozma ravishda xabardor qilishi shart.

8.3. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch 1 oy davomida uzluksiz ravishda davom etsa, taraflar bir-birini yozma ravishda ogohlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilish yoki ijro muddatlarini o'zgartirishlari mumkin.

IX. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tartibi

9.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmagan taqdirda mavjud nizo **"Buyurtmachi"** joylashgan hududdagi iqtisodiy sudlar orqali O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida hal qilinadi.

9.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

9.3. Ushbu shartnoma 2022 yil "31" dekabrgacha amal qiladi.

9.4. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, hududiy g'aznachilik bo'limida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

Shartnomalarni yuridik manzil va rekvizitlari quyidagicha to'ldirilishi lozim:

| | | | |
|---|--|--|--|
| «Yetkazib beruvchi» | | «Buyurtmachi» | |
| Nomi | «PROFARMA MEDICAL» MCHJ | Farg'ona shahar maktabgacha ta'lim bo'limi | |
| Manzili | Andijon shahar Uyg'urobod ko'chasi 31-uy | Farg'ona shahar Nurafshon ko'chasi 15 uy | |
| Tel/faks | 95 204 66 55 | 0 (373) 243-91-88 | |
| (X/R yoki ShXV | 20208000100907472001 | 100022860304017091100251065 | |
| Bank nomi | «Hamkorbank» Amaliyot filiali | STIRi 305153264 IFUT(OKONX) 85100 | |
| MFO | 00083 | Farg'ona shaxri bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi | |
| STIRi | 305688896 | YaG'H 23 402 000 300 100 001 010 | |
| IFUT(OKONX) | | Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa markazi (HKKM) | |
| | | MFO:00014 G'aznachilik STIRi 201122919 | |
|  Rahbar  S. Tuychiev | |  Buyurtmachi  N. Irgasheva | |

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA**
№ NJ3058401186

1. Loyiyaning turi: shartnoma 07
2. Loyiyaning nomi: Tovar-moddiy boyliklar, xom ashyo va materiallar sotib olish, xizmat ko‘rsatish haqida.
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Farg‘ona shahar maktabgacha ta’lim bo‘limi tomonidan 2022-yil 8-yanvar kuni ishlab chiqilgan va 2022-yil 8-yanvar kuni tizimga kiritilgan.
4. Loyiha bo‘yicha taklif: Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra,

XULOSA:

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti:



F.Jumaboyeva

08.01.2022-yil